

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 2



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№2 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабилова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)

**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафазель Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)  
**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Толипов Файзулла Саидович**  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr. 1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Xodjayev Sobir</b> KEKSALIK VA ERTA QARISH SOTSIOGERONTOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	4
<b>2. To‘raxo‘jayeva Ra‘no</b> DAVLAT XIZMATCHILARINI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI OLDINI OLISH MEHANIZMI SIFATIDA.....	11
<b>3. Turdikulov Shuxrat</b> SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING INSTITUTIONAL YONDASHUVI.....	19
<b>4. Mo‘minov Zokirjon</b> ZAMONAVIY SOTSIOLOGIYA:IJTIMOIIY O‘ZGARISHLARDA MOBILLIK.....	26
<b>5. Xoliqnazarov Rashidjon</b> DUNYO VA MDH DAVLATLARI IJTIMOIIY HAYOTIDA ELEKTRON HUJJAT AYLANISH TIZIMINING O‘RNI.....	33
<b>6. Shokirov Shaxrizod</b> HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK FIKRINI TA‘SIRI BO‘YICHA XALQARO TAJRIBA TAHLILI.....	41
<b>7. Nurullayeva Umida</b> XOTIN-QIZLARNI RAHBARLIK LAVOZIMLARIGA KO‘TARILISHI: TO‘SIQLAR VA IMKONIYATLAR.....	51
<b>8. Nazarova Nilufar</b> STRUCTURAL-FUNCTIONAL ANALYSIS OF ENSURING PROFESSIONAL COMPETITIVENESS OF YOUTH OF UZBEKISTAN.....	62
<b>9. A‘zamova Kumush</b> INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA REGULYATIV FUNKSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	72
<b>10. Ixtiyarov Farxod</b> INSON KAPITALINI KEYS METODI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNI TADQIQ ETISH: ASOSIIY TUSHUNCHA VA QONUNIYATLAR.....	78
<b>11. Karimova Maftuna</b> RIVOJLANGAN DAVLATLARNING UMUMIIY TA‘LIM MUASSALARIDA BOLALAR ZO‘RAVONLIGINI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA –TADBIRLAR.....	90
<b>12. Butoyev Ilxom</b> SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHIDA MA‘NAVIYAT TARBIYASINING TUTGAN O‘RNI.....	98
<b>13. Bozorova O‘lmasxon</b> YOSHLAR III RENESSANS MA'RIFIY STRATEGIYASINING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI.....	103


# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Shokirov Shaxrizod**

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti erkin tadqiqotchisi  
e-mail: shokirovshaxrizod78@gmail.com

## HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK FIKRINI TA’SIRI BO’YICHA XALQARO TAJRIBA TAHLILI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8399513>

### ANNOTATSIYA

Jamoatchilik fikrining bugungi kun voqea-hodisalariga nisbatan qarashlarini o’rganish juda muhimdir. Ayniqsa, jamiyatdagi yuzaga kelayotgan muammolar aniqlanishi natijasida ularning yechimlarini ham topish mumkin. Affelyativ yondashuv jamoaga kirishuvchanlik, do‘stona munosabatlar o’rnatish salohiyatiga egalik, o‘zaro yordam muhitini qo‘llab – quvvatlashga intilishni ifodalaydi. Maqolada Huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda jamoatchilik fikrining imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Huquqbuzarliklarning oldini olishda jamoatchilik fikrining o‘rni va davlat tashkiloti ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ijobiy jihatlari mazkur organ faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta’minlaydi. Mazkur jarayonlar maqolada xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** huquqbuzarlik, jinoyatchilik, affiliatsiya, urf-odat, jamoatchilik fikri, jamiyat, guruh, qonun, qoida.

**Шокиров Шахриод**

Научный сотрудник “Национального университета Ташкентского института ирригация и механизация сельского хозяйства” при исследовательском институте управления Бухарского природного института  
e-mail: shokirovshaxrizod78@gmail.com

## АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА ВЛИЯНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ НА ПРЕСТУПНОСТЬ И ЕЕ ПРОФИЛАКТИКУ

### АННОТАЦИЯ

Очень важно изучить взгляды общественного мнения на сегодняшние события, поскольку в результате выявления возникающих проблем в обществе могут быть найдены пути их решения. Аффiliatedный подход представляет собой сочетание принципов открытости коллективу, умения устанавливать дружеские отношения, стремления

поддерживать атмосферу взаимной поддержки. В статье рассматриваются возможности влияния общественного мнения на преступность и ее профилактику.

Роль общественного мнения в предупреждении преступлений и положительные стороны осуществления общественного контроля за соответствующими государственными органами обеспечивают открытость и подотчетность их деятельности. Эти процессы анализируются в статье на основе опыта зарубежных стран.

**Ключевые слова:** правонарушение, преступление, традиция, общественное мнение, общество, группа, закон, норма.

**Shokirov Shaxrizod**

“Tashkent irrigation and mechanization of agriculture  
Institute of Engineers” National Research University Bukhara Natural  
Visiting Fellow, Institute of Resource Management  
e-mail: shokirovshaxrizod78@gmail.com

## ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE ON THE IMPACT OF PUBLIC OPINION ON CRIME AND CRIME PREVENTION

### ANNOTATION

It is very important to study the views of public opinion on today's events. Moreover, as a result of identifying emerging problems in society, ways to solve them can be found. The affiliative approach is a combination of the principles of openness to the team, the ability to establish friendly relationships, and the desire to maintain an atmosphere of mutual support. The article examines the possibilities of the influence of public opinion on crime and its prevention.

The role of public opinion in crime prevention and the positive aspects of public control over relevant government bodies ensure openness and accountability of their activities. These processes based on the experience of foreign countries are analyzed in the article.

**Key words:** offense, crime, belonging, tradition, public opinion, society, group, law, norm.

### KIRISH.

Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining ta'siri bo'yicha xorijdagi zamonaviy ilmiy yondashuvlarni o'rganishni tizimli yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga egadir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining faoliyatini samarali tashkil etish mamlakatni barqaror rivojlantirishda katta rol o'ynayotganligiga guvoh bo'lamiz.

### METODOLOGIYA.

Jamoatchilik fikri fenomenini anglashda uning nazariy metodologik jihatlarini teran o'rganish bo'yicha ilmiy izlanmalarni yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydilar. Hususan bu borada ingliz faylasuflaridan J.Lokk, T.Gobbs, F.Bekonlarning tadqiqotlari alohida e'tiborga sazovordir. Ular ijtimoiy ong muammosini tadqiq etishga urg'u berishganliklari bois, jamoatchilik fikrini ijtimoiy jarayonlarning gnoseologik ildizi deb qarashgan. Ularning fikricha to'g'ri shakllanmagan jamoatchilik fikri (yolg'on, aldov va g'iybatlar) jamiyat kayfiyatiga negativ ta'sir etibgina qolmasdan, hattoki vayronkor oqibatlariga olib kelishini ta'kidlashgan.

XX asr boshlarida jamoatchilik fikri nafaqat jamiyatshunoslar, faylasuflar tomonidan tadqiq etildi, balki huquqshunos olim F.Holsendorf, sotsiologlar G.Tard va V.Xvostlar ham o'z hissalarini qo'shishdi. Shuningdek, Amerikalik sotsiolog Djon Solsberi o'zining «Policraticus sive de nugis curialium» kitobida jamoatchilik fikri fuqarolarning parlamentga o'tkazadigan ma'naviy ta'siri va demokratik jarayonlarni muvozanatga tuta olish imkoniyatlari mavjudligi bois, hukumat ham jamoatchilik fikriga muhtoj deb hisoblaydi. Jamoatchilik fikrini o'rgangan Rossiyalik olim B.Grushin jamoatchilik fikri hodisasiga shunday ta'rif beradi: “Jamoatchilik fikri o'zida turli guruh kishilarining sotsial voqelik jarayonlariga va faktlariga munosabatlarini mujassamlashtirgan ommaviy, ijtimoiy ong holatidir”. Jamoatchilik fikri – bu siyosiy yondashuvlar va siyosiy harkatlarga bo'lgan xalq munosabati hamda tushunchalarining majmuidir.

Amerikada Prezident va hukumat amalga oshirayotgan faoliyat va ularning rahbarlik uslublarini amerikaliklar ma'qullayotganligi yoki ma'qullamasligini nazorati sifatida namoyon bo'ladi. Jamoatchilik fikri o'zgarishlari haqidagi ma'lumotlar Prezidentdan tortib, oddiy fuqarogacha doimiy ravishda so'ralib turiladi.

### ASOSIY QISM.

Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining ta'siri bo'yicha xorijiy tajribani uch guruhga bo'lish mumkin.

- Amerika Qo'shma Shtatlari va Kanada;

- Yevropa ittifoqi davlatlari;

- Uzoq va Yaqin Sharq (Yaponiya, Korea, Malayziya va Singapur) davlatlaridagi huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining ta'siriga doir tajribalar.

Xorijiy tajribani o'rganish huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishda jamoatchilik fikrining yuzaga keladigan zamonaviy muammolarni hal qilishga ham katta imkoniyat yaratadi.

Ayni paytda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikri rolining rivojlanishi va qo'shimcha ravishda nodavlat notijorat tashkilotlarning tashkil topishiga olib keladi. Jahondagi nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanish tendentsiyalarini, tajribalarini tahlil qilganimizda o'ziga xos institutsiallashtirish holatini ko'rishimiz mumkin. Bu institutsiallashtirish shu mamlakat mentaliteti aholisining jamoatchilik fikri va jamiyati munosabatidan kelib chiqadi. Masalan: xalqaro doiralarda "NNT" – nodavlat notijorat tashkilotlar deb nomlansa, Buyuk Britaniyada "non-statutory sector" (qonuniy bo'lmagan sektor) yoki barcha soliqlardan ozod etilgan sektor, Frantsiyada va Yevropa Ittifoqining ko'plab davlatlarida "économie sociale" (ijtimoiy iqtisodiyot), Germaniyada – "gemeinnützige Organisationen" (insonparvar tashkilot), "gemeninwirtschaftliche Unternehmen" (davlat xizmatlari kompaniyasi), Chexiyada "občanský sektor", ya'ni fuqarolar sektori deb atalib kelingan [1, - B. 62].

Amerikalik siyosiy tahlilchi Londonda joylashgan MORI (Market & Opinion Research International Ltd) kompaniyasi asoschisi Robert Vuster jamoatchilik fikrini o'rganishda qo'llaniladigan fikr, munosabat va qadriyatlar tushunchalarining tahliliga nisbatan muhim metaforik tavsif olgan. "Jamoatchilik - kayfiyatining turli darajadagi to'liqlilari hisoblanib, asta-sekin o'zgarib turadi, lekin ular kuchli qadriyatdir" fikrlar esa "jamoat ongida barqaror joylashadi va nisbatan sekin o'zgarishga moyil bo'ladi" deb ta'rif beradi. Vusterning fikricha, jamoatchilik fikrini tushunish san'ati nafaqat odamlarning qarashlarini o'lchashga, balki bu qarashlar ortida turgan motivlarni ham tushunishga asoslanishini ta'kidlaydi [2, - B. 79-80].

Fransiyalik sotsiolog Mishel Krespi o'z tadqiqotlarida jamoatchilik fikri hodisasining standart kontseptsiyasi bo'lmashligini ta'kidlaydi. Uning tasniflashicha, jamoatchilik fikri to'rtta ijtimoiy omillarning birlashishi natijasida rivojlanib, quyidagi o'zia xos munosabatlar tizimini tarkib toptiradi:

- qadriyatlar va manfaatlar;

- bilim va e'tiqod;

- his-tuyg'ular;

- xulq-atvor niyatlari (ya'ni, ma'lum bir tarzda harakat qilish uchun ongli moyillikdir) ning birlashishi katta va kichik guruhlarda ijtimoiy yakdillik ruhi shakllanadi [3, - B. 70-76].

Shu boisdan ham, jamoatchilik fikri mohiyatini anglashda eng muhim tushuncha qadriyatlar enakligi va ularning odamlarga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z fikrini boshqalarga uyg'unlashtirishga asos bo'lishini e'tiborga olish zarur. Umuman olganda, insonlar o'zlarining qadriyatlarini buni talab qilishini tushunganlaridan so'ng uni bajarish ehtimoli kuchayadi. Qadriyatlar ilk marotaba oila muhitida o'rgatilib, so'ngra o'quv davrida kuchaytiriladi. Insonlar yoshi ulg'aygani sayin qadriyatlarga ko'proq tayana boshlaydilar va uni o'zgartirishni istamay qoladilar. Qadriyatlarga jamiyatdagi ichki qoidalar, urf odatlar, an'analar, diniy e'tiqodlar, siyosiy qarashlar, axloqiy me'yorlar va boshqalar mujassamlashadi. Vusterning tajribasi shuni ko'rsatadiki, "Qadriyatlar oddiy ishontirish va ommaviy axborot vositalarining ta'siriga nisbatan ta'sirliroq bo'lib, ular bitta argumentdagi pozitsiyalar yoki dalillar natijasida kamdan-kam hollarda o'zgaradi" [4, - B. 79-80].

Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli faoliyatiga ta'sir etuvchi huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy omillarga kuchli katalizator sifatida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, muammoning tan olinishi bilan unga bo'lgan jamoatchilik munosabatidan boshlanadi.

Muammoga nisbatan jamoatchilikning munosabati yetarli miqdordagi aholi tabaqalari vakillari tomonidan ma'qullansagina jamoatchilik fikri shakllangan hisoblanadi. Jamoatchilik fikrining faol amal qilishi huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining xalq va davlat o'rtasidagi ijtimoiy ko'priq sifatida faoliyat yuritishini yaxshilaydi.

Shuni ham takidlash kerakki, odamlar odatda o'z munosabatlarini o'zlari mansub bo'lgan ijtimoiy guruhlarga yoki huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roliga moslashishga moyil bo'lishadi.

XV asrda uyg'onish davrining boshlanishi va XVI asrda yuzaga kelgan protestantizm g'oyalarining keng yoyilishi jamiyatdagi muammolarga yondashuvning yangi shakllarini yaratib, erkin fikr bildirishning ilg'or talqinlari vujudga kelishiga asos bo'ldi. Ana shu o'zgarishlarga mos ravishda jamoatchilik fikri ham jamiyat taraqqiyotiga real ta'sir etuvchi kuchga aylanib bordi. Jamoatchilik fikri XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga kelib ilk karra maishiy, iqtisodiy, diniy yo'nalishlardan siyosiy muammolar doirasida shakllanish bosqichiga ko'tarildi. 1793 yidagi Frantsiya revolyutsiyasi, 1848 yildagi Germaniyani birlashtiruvchi siyosiy jarayonlar, Avstro – Vengriyadagi ijtimoiy siyosiy voqealar bunga misoldir.

Hozirgi kunga kelib esa huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining harakatlantiruvchi kuchi ham tubdan isloh bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar, internet sahifalar hal qiluvchi kuchga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 28-yanvardagi PF-60 - sonli farmonida ham huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirish bo'yicha bir qator vazifalar belgilangan mazkur farmonga asosan huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roliga davlat organlari faoliyatini shaffofligini ta'minlash maqsadida hisobot berib borishi, jamoatchilik fikrini o'rgangan holda jamoatchilik tashabbuslarini qullab-quvvatlash va aholining qiynab kelayotgan muammolarini bartaraf etish, ularning moliyalashtirishni yetti baravar ko'paytirish, kooruptsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik bilan birga hamkorlikda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli orqali hamkorlik o'rnatish va boshqa bir qancha maqsadlar ilgari so'rilgan [5].

Davr taqozosiga ko'ra ommaviy axborot vositalari shaklan yoki tuzilmaviy jihati o'zgarsada axborot tarqatuvchi vositalar o'zining ijtimoiy ahamiyatini yo'qotmaydi. Har bir axborot o'sha jamiyatning ma'naviy, intellektual qiyofasini belgilaydi. Bundan ko'rinadiki, ommaviy axborot vositalari faqatgina jamiyatda ma'naviy – ma'rifiy ustqurma sifatidagina emas, balki jamoatchilik fikrini shakllantirishda ham asosiy o'rin egallashi va ijtimoiy mavqei oshirishini unutmaslik kerak [6, - B. 192].

Shu boisdan ham, O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar va o'zini o'zi boshqarish organlari kabi huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini oluvchi infratuzilmalar uchun jamoatchilik fikrining rolini takomillashtirish ustuvor ijtimoiy-siyosat sifatida belgilandi. Darhaqiqat jamoatchilik fikri jamiyatdagi asl muammolarini aniqlash, ularga maqbul yechim topishda eng xalqchil va demokratik yondashuv hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda jamoatchilik fikri kontsentratsiyalashayotgan eng ulkan islohot bu bosh qomusimiz Konstitutsiyani isloh etilishidir. Bu katta ijtimoiy fenomen fuqarolarning faolligi oshiribgina qolmay barcha huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining hamma jabhalarda keng ko'lamda faollik ko'rsatishiga undamoqda. Tabiiyki, mamlakatimiz va har bir fuqaroning ertangi kuni qanday bo'lishi borasida javob kutayotgan fuqarolar albatta birinchi o'rinda siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari kabi huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli samaradorligi oshishiga umid bog'lamoqda.

Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining holati va rivojlanish istiqbollari konkret sotsiologik usullari orqali aniqlab beruvchi jamoatchilik fikrini nazorat qilish instituti qator rivojlangan davlatlarda tashkil etilgan. Bunday institut faoliyatidan xalqaro va xorijiy tajribalar asosida foydalanish bo'yicha quyidagi zarurat mavjud:

- ijtimoiy davlat kontseptsiyasini shakllantirish nuqtai - nazaridan davlat hokimiyati organlari ustidan fuqarolik jamiyati nazoratining zarurligi;

- huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining rolini integrtsiyalash negizida jamoatchilik fikri ta'sirchanligini oshirish zarurligi;

- huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining asosiy tamoyillari, maqsad va vazifalarini jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ratsional tashkil etish zarurligi bilan izohlanadi.

Rivojlangan G'arb mamlakatlarida davlat hokimiyati organlari ustidan jamoatchilik fikri orqali ijtimoiy nazorat o'rnatilganligi mazkur voqelikning hayotchanligi va ularning uzoq tarixga ega ekanligi hamda ko'plab tajriba va usullari takomillashganligida ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy G'arb siyosiy tilida "jamoatchilik nazorati"ning tarjimasini boshqacha talqinini "shaffoflik" va "ishtirok etish" degan jummalarga ko'zimiz tushadi. Bu so'zlar, ayniqsa, Barak Obamaning mashhur "Shaffoflik Memorandumi" [7] da e'lon qilinganidan keyin mamlakatda eng ommabop iboralardan biriga aylandi. Bugungi kunda davlat va jamiyat oldidagi eng katta ma'suliyat bu barcha faoliyatlardagi "shaffoflik" va fuqarolarning "ishtiroki". Bu ikki omilning ta'minlanishi G'arb demokratik nazariyasida "jamoatchilik nazorati" deb yuritiladi [8, - B. 5].


Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Milliy Harakat "Open Government Partnership" [9] (Ochiq Hukumat Hamkorligi) tashkiloti rejasining muqaddimasiga muvofiq, davlat organlari quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- faoliyatida shaffof bo'lish - buning uchun esa boshqaruv faoliyati haqida imkon qadar to'liqroq ma'lumotni aholiga o'z vaqtida taqdim etish va osonlikcha yetkazish kerak;

- fuqarolarni qarorlar qabul qilish jarayonlariga tobora ko'proq jalb qilish - chunki bu davlat tashkilotlarini yanada samarali va mas'uliyatli qiladi;

- halollikning eng yuqori standartlarini amalga oshirish - chunki davlat xizmatchilari o'zlariga emas, balki xalqqa xizmat qilishlari kerak ekanligini anglaydi;

- texnologiyalardan unumli foydalanish - chunki u imkoniyatni kengaytiradi va hozirgi raqamli asrda aholiga axborotlarni yoyish va jalb etishda ahamiyatli rol egallaydi" [10].



**1-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ustidan nazorat qilish uchun qo'llaniladigan turli yondashuv tamoyillari**

Hozirgi kunda “AQShda 1,5 millionga yaqin faollarini birlashtirgan nodavlat tashkilotlari huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli o'z faoliyatlarini aholi turli tabaqalari fikriga tayangan holda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishmoqda” [11].

Butun dunyoda internetning rivojlanishi va Yevropa mamlakatlarida integratsiya jarayonlarining shiddatli kechayotganligi davlat organlarini huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli oldidagi ochiqligini hamda hisobdorligini monitoring qilish bo'yicha fuqarolarning interaktiv ishtirokini ta'minlash maqsadida ko'plab chora-tadbirlar, dasturlar ishlab chiqilgan. Yevropa Ittifoqi faoliyatida ko'plab loyihalar amalga oshirilgan bo'lib, ulardan biri Yevropa Komissiyasi homiyligidagi “Your Voice in Europe” (“Evropadagi sizning ovozingiz”) loyihasi internetdan keng interaktiv muhokamalarni amalga oshiradi, ya'ni migratsiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, transport, kambag'allik masalalari va boshqalar. Bu loyiha dolzarb muammolarni hal qilish uchun aholi va Yevropa Ittifoqi hukumatlari o'rtasidagi ikki tomonlama muloqotni o'z ichiga oladi [12].

Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining rolini huquqiy tartibga solishda muvaffaqiyatli xorijiy va xalqaro tajribadan foydalanish mamlakatimizda jamoatchilik fikrini tizimlashtirish va maqbul tartibga solish imkonini beradi.

Shuningdek, hozirgi kunda nafaqat Yevropa mamlakatlari huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining rolini rivojlantirish masalalari bilan shug'ullanmoqda balki, ko'plab jamoatchilik fikri sub'ektlari faoliyati postsovet davlatlarda vazirlik va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari bilan mustahkamlab qo'yilgan. Bundan tashqari, mazkur huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli zimmasiga axborot, maslahat berish bilan cheklanmay nazorat qilish vakolatlari ularning ishlash funksiyalariga kiritilgan.

Gruziya davlatida mahkumlarni ushlab turishning ijtimoiy va huquqiy kafolatlarini qonuniyligini ta'minlash maqsadida Respublika Adliya vazirligi huzurida Jazoni ijro etish tizimi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish bo'yicha fuqarolik jamiyati instituti sifatida “Mustaqil kengashi” tashkil etilgan. Kengash vakolatlariga jazoni ijro etish muassasalari ma'muriyatiga mahkumlarni taqsimlash, ishga joylashtirish, ovqatlantirish, tibbiy xizmat ko'rsatishda ko'maklashish, shuningdek, ushbu muassasalar bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganib ularning foliyati ustidan nazorat qilish funksiyalari kiradi [13, - B. 9-19]. Xuddi shunday holat, Armaniston Respublikasi Adliya vazirligi qarori asosida shakllangan Armaniston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi jazoni ijro etish tizimidagi jamoatchilik kuzatuvchilarining o'zlarini fuqarolik institutlari mavjud bo'lib, ular ham jazoni o'tovchi insonlarning xaq-huquqlarini himoya qiladi [14, - B. 8].

Jamoatchilik fikrini o'rganish natijalari o'rnatilgan jamoatchilik nazorati tizimini optimallashtirish dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining rolidan unumli foydalanishda hamda davlat hokimiyati organlari ustidan nazorat qilish tamoyillari, maqsad va vazifalarini aniqlashda rivojlangan mamlakatlar tajribasi ahamiyatlidir. Barchaga ma'lumki, AQSh va Yevropa Ittifoqining eng ustuvor maqsadi bu demokratiyani ta'minlashdan iboratdir. Buning uchun avvalambor, jamiyatning davlat hokimiyati organlari ustidan nazoratni amalga oshirishni asosiy tamoyil qilib olishgan. Shu boisdan, G'arb mamlakatlarida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining rivojlanishi va targ'ib etilishi avvalambor davlat organlarining jamoatchilik fikrini to'g'ri anglashlari bilan bog'liqdir.

Shuningdek, AQSh va Yevropa Ittifoqi 1966 yil qonunchiligiga qabul qilingan (The Freedom of Information Act, FOIA) «Axborot erkinligi to'g'risida»gi qonunida jamiyatni davlat hokimiyati organlari ustidan nazorati asosiy maqsad qilib olingan. Unga binoan, demokratik huquq va erkinliklarni ta'minlashda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli jamoatchilik fikrini yuqori darajaga ko'tarilgan. Ushbu qonunga yillar davomida qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritilib borilgan bo'lsada, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli ilgari surilayotgan ma'lumotlar jamoatchilik fikrini keng doirada o'rganilishi va asosiligi tasdiqlangan bo'lishi kerak ekanligi bilan belgilab qo'yilgan: “Demokratiya javobgarlikni talab qiladi. Javobgarlik shaffoflikni talab qiladi” [16] – deb keltirilgan.

AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida jamoatchilik nazorati ob'ektlari ro'yxati postsovet mamlakatlaridagidan ancha kengroqdir. Bir qator mualliflar Qo'shma Shtatlaridagi huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining jamoatchilik nazdidagi qarashlarini haqli ravishda qayd etishadi. Shu boisdan ham, ularning tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

AQSh va Yevropa Ittifoqida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining turlari va faoliyati keng doirani qamrab olgan. Ularning faoliyatida "Harbiylar ustidan fuqarolik nazorati, jinoiy sudlov ishi ustidan jamoatchilik nazorati, ekologik harakatlar, tibbiyot muassasalarida fuqarolik nazorati va boshqalar mavjud" [17, - B. 183-184]. Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining xorijiy tajribasi va uni amalga oshirish shakllarining turli xilligi bilan boshqa rivojlanayotgan davlatlar jamiyatini demokratlashtirishda foydalanib kelinmoqda.

Sotsiolog A.Parxomenko ta'kidlaganidek, AQShda "jamoatchilik nazorati ikki asosiy shaklda amalga oshiriladi. Birinchisi, fuqarolarning irodasini ya'ni jamoatchilik fikrini to'g'ridan-to'g'ri ifodalanishi va ikkinchisi, ular nomidan saylangan ish yurituvchi fuqarolar ya'ni vakillar tomonidan yoki huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli orqali bilvosita amalga oshiriladi. Shunaqa ekan, jamoatchilik nazoratining ushbu shakllarining qaysi biri ustuvorligi haqida solishtirib bo'lmaydi, chunki ular jamoatchilik fikrining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda birdek muhim ahamiyatga egadir" [18, - B. 622-625].

AQSh qonunchiligi bo'yicha barcha siyosiy – ijtimoiy jabhalarda jamoatchilik muhokamalari muhim rol egallaydi. Ular barcha ijtimoiy sohalarni o'z ichiga qamrab olgan. Xususan:

- xalqning qonun ijodkorligi tashabbusi;
- jamoatchilik fikri orqali fuqarolarning mahalliy ishlarni boshqarishda ishtirok etishi;
- fuqarolarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risidagi axborot va hujjatlardan erkin foydalanishi;
- surishtiruv jurnalistikasi va ommaviy axborot vositalari faoliyati;
- fuqarolarning davlat hokimiyati organlariga, shuningdek mansabdor shaxslarga elektron murojaatlar yuborish imkoniyati;
- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan jamiyat hayotining boshqa masalalari bo'yicha ommaviy muhokama qilish;

jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi va hukmron elitaga ta'sir ko'rsatadigan tadqiqot, publitsistik va badiiy asarlar yaratish va boshqalar qiradi.

Shuningdek, ularning maqsadlari va faoliyati davlat ichki va tashqi siyosatiga zid keluvchi, jamiyatning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, jamoatchilik tinchligiga putir yetkazuvchi bo'lmasligi to'g'risida qonunchiliga keltirib o'tilgan [19].

AQSh va Yevropa Ittifoqi tajribasini kuzatar ekansiz, ularda eng ko'p jamoatchilik fikri va qatnashuvini ta'minlagan qonunchilik loyihalari mamlakatdagi eng shaffof va xaqqoniy degan statusni qo'lga kiritishiga iqror bo'lasiz hamda bu loyihalar hukumat tomonidan ham bir qancha rag'batlantirishlarga sazovor bo'lib kelmoqda.

Jamoatchilik fikri orqali nazorat - bu fuqarolarning, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli - siyosiy partiyalarning ommaviy axborot vositalarining, kasaba uyushmalarining, jamoat birlashmalarining, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan nazorat o'rnatishi, qonun va qonun osti hujjatlarga rioya etilishini ta'minlashga majburlash maqsadida qonuniy amalga oshiriladigan ma'suliyatli va natijador harakatlar majmuidir [20, - B. 622-625].

Shu bilan bir qatorda, Uzoq Sharq mamlakatlaridan Janubiy Koreya davlatining jamiyati, rivojlangan dunyoda aholisi tomonidan eng ko'p nazorat qilinadigan jamiyatlardan biridir. Uning o'ziga xosligi bir vaqtning o'zida hukumat tarkibiga demokratik tendentsiyalar bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlari yonma-yon faoliyat olib borishadi.

Janubiy Koreya davlatida faoliyat olib borayotgan huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining maqsadi jamoatchilik fikri orqali aholi turmush tarzi farovonligini

ta'minlashda o'ziga xos yo'lni tutishlaridir. Ularning bosh maqsadi jamiyatni tubdan yemiruvchi korruptsiyani jamoatchilik fikri va nazorati orqali bartaraf etish hisoblanadi.

Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli sektorida muhim o'zgarishlardan biri bu konservativ ya'ni, jamiyatda an'ana va vorislik g'oyasiga tayanuvchi xilma – xil siyosiy – madaniy tashkilotlar tuzilganidir. So'ngi yillarda notijorat tashkilotlarining rivojlanishiga bosh sabab bu aholida internetdan foydalanishning o'sishi va har xil turli video roliklarni yuqori saviyada jamiyatga targ'ib etish maxsuli hisoblanadi.

2006 yil Janubiy Koreyada nodavlat notijorat tashkilotlarning umumiy soni 23017 tadan iborat bo'lgan. 5556 tasi fuqarolarning o'zaro jamiyat ravnaqi uchun birlashgan guruhlarini hisoblanib, undan 1336 (24%) fuqarolar jamiyati guruhi, 1030 (19%) ijtimoiy xizmatlar guruhi, 736 (13%) ekologik guruhlar va 638 (12%) onlayn ijtimoiy ko'mak berish guruhlarini tashkil etgan. Ushbu 4 ta toifa guruhlarini jamoatchilik fikri bilan ishlab ijtimoiy muammolardan iborat bo'lgan atrof – muhit, ekologiya va yordamga muhtojlarni aniqlagan va ularga yordam berishgan. Ularda bunga yordamchi vazifasini internet sahifalari va kanallaridan keng foydalanish imkon yaratgan [21, - B. 61].

Janubiy Koreya Respublikasida faoliyat olib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlari ikki toifaga ajraladi. Ular davlatning ikki qanoti hisoblanib biri ijtimoiy – siyosiy demokratik islohatlarni amalga oshirsa, ikkichisi jamiyat a'zolariga milliy o'zlikni anglatish va saqlashdan iborat konservativ g'oyalarni amalga oshiradi.

Rivojlangan Sharq mamlakati Yaponiya davlati tajribasini ko'radigan bo'lsak, yapon millatida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli o'ziga xos tarzda faoliyat yuritadi. Bu o'ziga xoslik Yaponiya fuqarolari ijtimoiy umumiy muammolarga duch kelishganda ular nafaqat fuqarolik jamiyati institutlariga murojaat qiladilar balki, an'anaviy milliy stereotiplariiga binoan bevosita hukumatga xam murojaat qiladilar.

Yaponiyada mahalliy munitsipalitet shaklidagi fuqarolik institutlari o'rtacha 100 xonadonni o'zida birlashtirib o'zlarining hududidagi barcha aholi uchun turli xil tadbirlarni tashkillashtirib, jamoatchilik faollashtirishga intilishadi. Ular, mahalliy festivallarni, yoshlar va keksalar uchun sport uchrashuvlarini, hududdagi posbonlarni saylashni, salomatlik dasturlarini ishlab chiqishni, xukumatning olib borayotgan siyosiy ishlaridan aholini bahobar qilib turishni va eng muhimi jamoatchilik fikrini o'rgangan holda mahalliy amaldorlarga aholining istaklarini yetkazadi. Ularda professional huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli mavjud bo'lmasada ammo mahalliy joylashgan tashkilotlar keng ijtimoiy yordam berish tarmog'iga egaligi bilan ajralib turadi [22].

Yana bir manbada keltirilishicha, Yaponiya davlati “uyg'un”jamiyat sifatida tasvirlanadi va uning xalqi mehnatkash, itoatkor, sabrli hisoblansada, siyosiy jihatdan faol tasvirlanmaydi. Ular millatining kelajagini byurokratlarga va siyosatchilarga topshirishni avzal ko'rishadi va barcha qarorlarni xalq etishda ularga ishonishlarini ta'kidlashadi. Vaholangki ularning jamiyatida bu uchun ehtiyoj yo'q, chunki jamiyatda barcha masalalar yaxshi tizimlashtirilgan va yo'naltirilganligi bilan barcha mamlakatlarni o'ziga jalb etadi. Yaponiyadagi fuqarolik jamiyati institutlari asosan, atrof muhitni toza tutish, ijtimoiy ko'mak ko'rsatish, mahalliy hodisalarda aholini bir yerga to'plash, an'anaviy urf-odatlarini targ'ib etish kabi faoliyatlar bilan mashg'ul bo'lishadi [23].

Yaponiyada keng tarqalgan qondoshlik aloqalarini mustahkamlovchi iemoto jamiyati mavjud bo'lib, gorizontall tizimda faoliyat yuritadi va “ustoz – shogird, ota – ona, katta – kichik va boshqa qadriyatlarini o'z ichiga qamrab olgan. Ushbu tizimning asosiy maqsadi avloddan – avlodga yapon madaniyati, urf-odatlarini yetkazish maqsad qilingan. Ya'ni, yapon jang san'ati, samuraylik qonun-qoidalari, Kabuki teatri, choy marosimlari va boshqa ijtimoiy an'analarni avlodga yetkazishdan iborat. Iemoto jamiyatiga mamlakatning istalgan qatlam vakillari ko'ngilli bo'lib qo'shilishi mumkin va bunda faoliyat olib borayotgan jamiyat har bir fuqaro uchun “ikkinchi oilasidir” [24, - B. 144].

Janubiy Korea va Yaponiya davlatlarining tajribasini kuzatar ekanmiz, bu yerdagi huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining rolini olib borishda avvalam bor jamoatchilikning orzu istaklari, urf-odatlari va qadriyatlarini bilan uyg'unligi dolzarb ekanligini ko'ramiz.

Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli jamiyat va hukumat o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lib, fuqarolarga davlat bilan davlatning maqsad va ustuvor yo'nalishlari bo'yicha halol va ochiq muloqot o'tkazishga yordam beradi. Bu borada jamoatchilik fikrining qaytma aloqalari natijasida hukumat vakillari xalq mamlakatdagi zarur islohotlarni amalga oshirish bo'yicha fuqarolarning talablarini qo'llab-quvvatlaydi va amalga oshiradi. Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli davlatni samarali ishlashga rag'batlantiradi va fuqarolarining oldidagi ishonchini va shaffovligini ta'minlaydi.

Jahon huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining rolini rivojlantirish jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, ko'p mamlakatlarda notijorat tashkilotlar katta qismi davlat byudjetidan moliyalashtiriladi. Masalan: Isroil, Yevropa, Kanada – 54%; Sharqiy Yevropa - 42%; Anglosakson mamlakatlari - 36%; Skandinaviya - 35%; Osiyoning rivojlangan mamlakatlari - 34%; Lotin Amerikasi - 19%, Frantsiya 60%, Belgiya 76% va boshqa. Ushbu mamlakatlarda fuqarolik jamiyati institutlari uchun asosiy daromad manbai davlat byudjeti hisoblanadi [25, - B. 142-144].

Yevropa Ittifoqi tarkibidagi barcha mamlakatlarga bevosita ta'sir etuvchi huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining roli tuzishga harakat qilgan bo'lib, shu kunga qadar, jamiyat va davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirib beruvchi 400 dan ortiq xalqaro darajadagi nodavlat notijorat tashkilotlar tashkil topgan. Bular ichidan eng yuqori mavqega egasi Yevropa kengashi huzuridagi Xalqaro nodavlat tashkilotlar konfrentsiyasi (Konferentsiya mejdunarodnykh nepravitel'stvennykh organizatsiy (KMNO) pri Sovete Yevropy) hisoblanadi. Shuningdek, Vazirlar qo'mitasi, Parlament Assambleyasi, Yevropa Kengashining Mahalliy va mintaqaviy hokimiyat Kongressi fuqarolar va ularning birlashmalarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilish nuqtai nazaridan Yevropa xukumati va Xalqaro nodavlat tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorligini ta'minlaydi [26].

#### **XULOSA.**

Yuqoridagi barcha fikr-mulohazalarni ko'rib chiqib shuni aytish mumkinki, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik fikrining rolini tashkil etishda va jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha xalqaro tajribalarini milliy mental hususiyatlarimizni aks ettirgan holda O'zbekiston Respublikasiga joriy etilishi nafaqat jamiyatni rivojlantirishda, balki fuqarolik institutlari faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda va mukammal rivojlanishida muhim rol egallaydi.

#### **Adabiyotlar/ Литература/ References:**

1. Saidov S. Ijtimoiy kapital - fuqarolik jamiyatning muhim mezoni. Toshkent: Kafolat print company, 2019 йил, 62 - бет.
2. Robert M. Worcester. The Internationalization of Public Opinion Research. The Public Opinion Quarterly. Vol. 51, 1987, pp. 79-80
3. Crespy, M. Violência e controle da informação. Revista FAMECOS, 13(29), 2008., pp. 70-76.
4. Robert M. Worcester. The Internationalization of Public Opinion Research. The Public Opinion Quarterly. Vol. 51, (1987), pp. 79-80
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28-yanvardagi PF – 60 – sonli farmoni.
6. Jalilov A., Muhammadiev U., Jo'raev Q. Fuqarolik jamiyati asoslari: o'quv qo'llanma / Toshkent: 2015 y., 192-bet.
7. Прозрачность и участие: общественный контроль в США и Европе. Аналитический доклад Фонда открытой новой демократии. – М., 2013.С.5.
8. <https://www.opengovpartnership.org/about/>
9. Иванов В. Открытая закрытость. Американские спецслужбы получили новый Совет // URL: [http://nvo.ng.ru/realty/2016-05-13/5\\_sovet.html](http://nvo.ng.ru/realty/2016-05-13/5_sovet.html) (дата обращения: 01.01.2019).

10. Барак Обама Change We Can Believe In Подробнее на livelib.ru: <https://www.livelib.ru/work/1005211042-change-we-can-believe-in-barak-obama>.
11. URL: [http://ec.europa.eu/yourvoice/consultations/2016/index\\_en.htm](http://ec.europa.eu/yourvoice/consultations/2016/index_en.htm) (дата обращения: 01.01.2019).
12. Александров А. С. Зарубежный опыт общественного контроля и общественного воздействия на осужденных к лишению свободы // Вестник Кузбасского института. 2018. № 1 (34). С. 9-19.
13. Зарубежный опыт исполнения наказания в виде лишения свободы в отношении несовершеннолетних: аналитический обзор с предложениями / НИИ ФСИН России. – М., 2010. С. 8.
14. URL: <https://www.foia.gov> (дата обращения: 01.03.2020).
15. URL: <https://obamawhitehouse.archives.gov/the-press-office/freedom-information-act> (дата обращения: 01.03.2020).
16. Прозрачность и участие: общественный контроль 2.0 в США и Европе. С. 5, 16, 17, 176, 183—184.
17. Пархоменко, А. Н. Общественный контроль в Соединенных Штатах Америки / А. Н. Пархоменко. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 20 (124). — С. 622-625. — URL: 18.
18. <https://moluch.ru/archive/124/34196/> (дата обращения: 08.07.2022).
19. Прозрачность и участие: общественный контроль 2.0 в США и Европе
20. Пархоменко, А.Н. Общественный контроль в Соединенных Штатах Америки / А. Н. Пархоменко. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. 2016. – № 20 (124). – С. 622-625. – URL: <https://moluch.ru/archive/124/34196/> (дата обращения: 08.07.2022).
21. Yoonhee Kang. Korean Civil Society and Trust-Building between South Korea and the United States. Asia Policy
22. No. 13 (January 2012), pp. 61-82 (22 pages) National Bureau of Asian Research (NBR) [https://www.jstor.org/stable/24905166#metadata\\_info\\_tab\\_contents](https://www.jstor.org/stable/24905166#metadata_info_tab_contents)
23. Robert Pekkanen. Grassroots Democracy and Civil Society in Japan . Aducation about asia Volume 16, Number 3, Winter 2011.
24. Vosse Wilhelm. The Emergence of a Civil Society in Japan. Japanstudien. January 1999 DOI:10.1080/09386491.2000.11826856
25. [https://www.researchgate.net/publication/242558761\\_The\\_Emergence\\_of\\_a\\_Civil\\_Society\\_in\\_Japan](https://www.researchgate.net/publication/242558761_The_Emergence_of_a_Civil_Society_in_Japan)
26. Кошелев А.М. Внутренние факторы формирования японского социума // Пут Востока. Традиции освобождения. Санкт – Петербургское общество, 2000. – С.114.
27. Околышев Д. А., Околышева И. А. Особенности институционализации общественного контроля в России и за рубежом // Вестник научных конференций. 2017. № 9-3 (25). – С. 142-144.
28. Конференция международных неправительственных организаций (КМНО) при Совете Европы. URL: <https://www.fecris.org/ru/наша-деятельность/council-of-europe>.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
VOLUME 6, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000